

20-May, 2025-yil

**ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI MUOMALA MADANIYATINI  
SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK O‘ZIGA XOSLIGI**

*IIV Akademiyasi 331-guruh kursanti  
Davletova Karomat Sapovoy qizi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada ishida ichki ishlar organlari xodimlarining muomala madaniyati, uni shakllantrishning psixologik mexanizmlari, hozirgi kunda muomala madaniyatini qay darajada dolzarbliги hamda fuqarolar bilan bo‘ladigan muloqot jarayonida muomala madaniyatini yanada shakllantirishga doir masalalar o‘rganildi va takliflar berildi.*

**Kalit so‘zlar:** *IIO xodimi, muomala madaniyati, kasbiy fazilatlar, axloq kodeksi, ijtimoiy madaniyat, ma’naviy qiyofa, huquqiy savodxonlik.*

**Annotation:** *This article examines the culture of communication among the staff of internal affairs bodies, the psychological mechanisms of its formation, the current relevance of communication culture, and issues related to further shaping communication culture in the process of interaction with citizens. Suggestions are also provided.*

**Key words:** *MIA officer, communication culture, professional qualities, code of ethics, social culture, spiritual image, legal literacy.*

Bugungi kunda ichki ishlar organlari tizimiga ulkan vazifalar ishonib topshirilmoqda. Bu borada ushbu vazifalarning samarali bajarilishi ustidan Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev tomonidan kuchli nazorat ostiga olinmoqda. O‘tgan qisqa muddat ichida ichki ishlar tizimini jazolovchi va nazorat qiluvchi organdan, xalq, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qiladigan professional tuzilmaga o‘zgartirish bo‘yicha tub islohotlar amalga oshirildi. Bunday o‘zgarishlarga hamohang tarzda IIO xodimlarining fuqarolar bilan bo‘ladigan muloqot jarayonida ularning muomala madaniyatini oshirish oldimizda turgan eng muhim vazifalardan hisoblanadi.

Insonlar o‘z faoliyati davomida, tabiiyki, boshqa odamlar bilan muloqotda bo‘ladilar. Ushbu jarayonda axborot almashadilar, bir-birlariga ta’sir ko‘rsatadilar, ta’lim beradilar, tajriba almashadilar. Bu jarayon shaxslararo o‘zaro munosabatlarda muloqot, muomala deb yuritiladi.

“Muomala madaniyati” – bu odamlar o‘rtasidagi munosabatlar va muloqotlar jarayonida, xususan, professional sohalarda, axloqiy va etiket qoidalarga amal qilish, o‘zaro hurmat, samimiylilik va adolatli bo‘lish kabi tamoyillarga asoslangan madaniy jihatlarni ifodalaydi. Muomala madaniyati, shuningdek, individual yoki guruhsalar o‘rtasidagi samarali va hurmatga asoslangan aloqalarni o‘rnatish, o‘zini tutish, fikrlarni to‘g‘ri ifodalash va boshqalar bilan o‘zaro munosabatlarda ijobjiy muhit yaratishga qaratilgan. Bu madaniyat nafaqat so‘zlarni tanlash, balki odamlar o‘rtasida ijtimoiy va hissiy muvofiqlikni ta’minlashni ham o‘z ichiga oladi.

20-May, 2025-yil

Muomala madaniyati har bir IIO xodimi uchun eng muhim va dolzarbliji ham shundaki, ijtimoiy hayotning deyarli har bir qatlamida IIV tizimining bir bo‘g‘ini mavjud. Shunday ekan, ichki ishlar organining har bir xodimi xalqchil, muomalaga kirishuvchan bo‘lishi zarur.

Kasbiy muomala har bir ichki ishlar idoralari xodimi faoliyatida muhim o‘rin egallaydi. Shuning uchun ham muomalaning har biri turi faoliyat jarayonida ishtirok etadi. Xodim muomala qonuniyatlariga suyangan holda shaxslar bilan munosabatga kirishadi. Muloqot jarayonida xodimning barcha kasbiy sifatlari (xotira, diqqat, idrok, sezgi, tafakkur, xayol ishtirok etadi).<sup>3</sup> Shuning uchun xodimda nafaqat muomala madaniyati balki, kasbiy sifatlari ham rivojlangan bo‘lishi kerak.

Muomala madaniyatini shakllantirish usullari quyidagicha bo‘lishi mumkin:

Ta‘lim va o‘qitish:

Muomala madaniyatini shakllantirishning asosiy usullaridan biri ta’limdir.

Bu nafaqat maktablarda, balki ish joylarida ham o‘rganilishi kerak. Masalan, ijtimoiy va professional munosabatlar haqida maxsus kurslar yoki treninglar tashkil qilish.

Normalar va qoidalarni belgilash:

Muomala madaniyati uchun aniq axloqiy va etik normalar yaratish muhimdir. Ish joylarida va jamiyatda odob-axloq, hurmat, o‘zaro yordam va boshqalar kabi qadriyatlarni qabul qilish va tarbiyalash.

O‘zini tutish va namuna ko‘rsatish:

Muomala madaniyatini shakllantirishda yetakchilar va ustozlar o‘zlarini yaxshi namunalar ko‘rsatishlari kerak. Jamiyatda etiket va axloq qoidalariга rioya qilishni rag‘batlantirish uchun shaxsiy namuna bo‘lish juda muhim.

Komunikatsiya va empatiya rivojlantirish:

Odamlar o‘rtasidagi samarali va hurmatli muloqot muomala madaniyatining asosidir. Bu uchun tinglash va empatiya qobiliyatlarini rivojlantirish zarur. Empatiya, ya‘ni boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish va hurmat qilish, muomala madaniyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Konstruktiv fikr almashish:

Muomala madaniyatini shakllantirishda konstruktiv fikr almashish

va tanqidni to‘g‘ri ifodalash muhim ahamiyatga ega. Tanqidni muloyim va ijobiy tarzda qilish, shuningdek, suhbatda noxush holatlarni oldini olish kerak.

Psixologik yordam va motivatsiya:

Muomala madaniyatini shakllantirishda psixologik yordam, maslahatlar va motivatsiya ham muhim. Bu jarayonda psixologlar va murabbiylar yordamida xodimlarning ichki ruhiy holatini yaxshilash va ularni muvaffaqiyatli muloqotga tayyorlash mumkin.

O‘quv materiallari va resurslardan foydalanish:

Muomala madaniyatini shakllantirishda kitoblar, maqolalar, videolar va boshqa resurslardan foydalanish samarali usullardan biridir. Maxsus adabiyotlar

20-May, 2025-yil

va o‘quv materiallari orqali odamlar o‘z bilimlarini oshirib, muloqotdagi madaniyatni takomillashtirishlari mumkin.

Motivatsiya va rag‘batlantirish:

Muomala madaniyatini shakllantirishda shaxsiy va guruh darajasida muvaffaqiyatlarni rag‘batlantirish, boshqalarga namuna ko‘rsatganlarni mukofotlash tizimi ham samarali usul hisoblanadi. Bu usul shaxsiy rivojlanishga turtki beradi.

Ushbu usullarni birlashtirib, muomala madaniyatini shakllantirish nafaqat ish joylarida, balki jamiyatda umumiy ijtimoiy va madaniy o‘sishga olib keladi.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, muomala madaniyatiga rioya qilish, kommunikativlikni rivojlanish, barcha sohalardan, umuman ijtimoiy hayotda muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqorida sanab o‘tilgan umumiy usullardan tashqari Ichki ishlar organlarida ham muomala madaniyatini rivojlanish

va kommunikativlikni oshirish yuzasidan o‘z takliflarimni ishlab chiqdim va ular quyidagilar:

IIBlarda sog‘lum ma’naviy muhitni saqlash.

Bunda, urg‘u asosan rahbar kadrlarga qaratiladi, ya’ni ish vaqhti davomida yuzaga kelgan har qanday agression vaziyatlarda ham xodimning og‘zidan yomon so‘zlar chiqmasligi, so‘kinmasligi kerak bo‘ladi.

Din ishlari bo‘yicha qo‘mita vakillari bilan hamkorlik.

IIVning 2023-yil 10-apreldagi 185-sun buyrug‘iga asoslanib din ishlari bo‘yicha qo‘mita vakillari tomonidan muomala madaniyatiga doir ma’ruzalar olib borilishini ta’minalash.

Yo‘riqnomalarda normativ-huquqiy hujjatlar talabini tushuntirish.

Ertalabki yo‘riqnomalar va boshqa yig‘ilishlar so‘ngida “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonun, “Kasbiy madaniyat va xizmat intizomi” kodeksi, IIVning

2021-yil 21-oktyabrdagi 400-sunli “IIO ma’naviy-ma’rifiy ishlar xizmati faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi buyrug‘i talablarida keltirilgan fuqarolar bilan muomala qilish haqida keltirilgan bandlarga amal qilish zarurligini takrorlab borish.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “IIO faoliyatini psixologikta’minlashning sifat jihatdan yangi tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 2023-yil 10-apreldagi 185-sun buyrug‘i.
2. O‘zbekiston Respublikasining “IIO ma’naviy-ma’rifiy ishlar xizmati faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 21-oktabrdagi 400-sun buyrug‘i.
3. R.X.Dushanon, Y.A.Farfiyev. (2014) “Kasbiy psixologiya” darslik. IIV Akademiyasi.
4. Xushvaqtov. T. (2020). “Ichki ishlar organlarida professional axloq va muomala madaniyat” – Toshkent, O‘zbekiston.
5. Sodiqov. M. (2021). “Stressni boshqarish va ichki ishlar organlaridagi professional faoliyat” – O‘zbekiston, Toshkent.